



XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-dekabr oylarida)

birlikda




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- yanbar holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **69,1** foizni tashkil etdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
■ O‘rmon xo‘jaligi
■ Baliqchilik xo‘jaligi




Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta‘rifi

Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **67,4** foizni tashkil etdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 3 776 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 65,9 % ni (jami sanoatdagi ulushi 90,7 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 64,0 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) tashkil etib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 106,5 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,9 % ni (jami sanoatdagi ulushi 7,2 %) tashkil etdi.


Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta'rifi

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 61,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,1 foizga kamaygan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,9 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 21,0 foiz ulushni va 27,0 foizga kamaygan.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirkmalar



Kichik korxonalar



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 10 228 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 70,1 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 80,5 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 20,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 93,9 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 81,5 foizni tashkil etdi.

811

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 258

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


7 196

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat


ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 667 ta yoki 83,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

95,8 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 95,2 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,4 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 73,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 83,3 foizni tashkil etdi;


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



165
yashash bo'yicha
xizmatlar




1 468
oziq-ovqat
mahsulotlari va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 143,2 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 10,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot (2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 28 144 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 16 262 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdoda – 34,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 22,5 foiz, qurilish – 11,4 foiz, sanoat – 11,2 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 3 614 etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 271 tani tashkil etib, ulardan 162 tasi yoki 59,8 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 17 taga yoki 6,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida viloyatimizda 27 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish




Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni


(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonona	Xorijiy korxonona
Qashqadaryo viloyati	162	101	61
G'uzor	7	5	2
Dehqonobod	12	8	4
Qamashi	6	4	2
Qarshi	10	6	4
Koson	9	6	3
Kitob	12	8	4
Mirishkor	7	4	3
Muborak	19	7	12
Nishon	8	5	3
Kasbi	6	1	5
Ko'kdala	3	1	2
Chiroqchi	7	6	1
Shahrisabz	4	1	3
Yakkabog'	8	6	2
Qarshi sh.	40	31	9
Shahrisabz sh.	4	2	2

**Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot
2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda**



Yetakchi o'rinni 25 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 15,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy Xalq Respublikasi (ulushi 15,4 foiz), Afg'oniston (ulushi 11,7 foiz), Turkiya Respublikasi (ulushi 9,3 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,6 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.